

**MEHRLI MAKTAB VA UNING FILIALLARIDA MATEMATIKA
FANINING TAKOMILLASHUVI**

Xalilov Zuhridin Abduraxim o'g'li

Yusupjanova Shaxnoza Mirzatillayevna

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

huzuridagi "Mehrlil maktab" davlat ta'lim muassasasi

Andijon viloyati filiali umumiy o'rta ta'limni

tashkil etish bo'yicha pedagog xodim:

zxalilov000@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada gospital ta'limdagi o'quvchilarni matematika faniga qiziqtirishning samarali metodlari va o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllashtirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: gospital maktab, gospital pedagogika, integratsiyalashgan ta'lim, maxsus ta'lim, shifoxona, uzoq muddatli davolanish.

Bugungi kunda gospital ta'limning rivojlanishi, har bir bola uchun sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyojning ta'minlanishi ta'lim sohasining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Sog'lig'i tufayli uzoq muddat davolanishda bo'lgan yoki jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun tashkil etilgan gospital ta'lim ularning bilim olish jarayonida uzilish bo'lmasligi uchun xizmat qiladi. Shunday murakkab sharoitda matematika fanini o'qitish an'anaviy maktab sharoitidan tubdan farq qiladi.

Gospital ta'lim sharoitidagi bolalarda e'tiborning qisqa davomiyligi, psixologik holatning turg'unmasligi, bilish jarayonlarining pasayganligi, motivatsiya yetishmasligi, tashqi og'ir omillar (og'riq, dori ta'siri, ruhiy charchoq) holatlari ko'p uchraydi. Bu holat o'qituvchidan bir vaqtning o'zida pedagog, psixolog, motivator, kreativ metodlarni qo'llovchi yo'lboshlovchi bo'lishni talab qiladi.

Gospital ta'limda o'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish masalasi ilmiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda talqin qilinadi:

- Psixologik-pedagogik yondashuvlar;
- Moslashtirilgan pedagogik texnologiyalar;
- Raqamli ta'lim metodlari;
- Motivatsion va emotsional qo'llab-quvvatlash usullari;
- Faol o'qitish metodlari va ijodiy yondashuvlar.

Ushbu maqolada yuqoridagi yo'nalishlar asosida matematika ta'limining gospital sharoitidagi xususiyatlari keng ilmiy tahlil qilishga harakat qilinadi.

1. Gospital ta'limning psixologik-pedagogik asoslari

1. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv

Gospital ta'limdagi o'quvchi – sog'lom o'quvchilardan tubdan farq qiladi. Ularda kuchli qo'rquv, xavotir, tushkunlik holatlari ko'proq kuzatiladi. O'quvchining ruhiy holati uning o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Shu bois matematika darslari haddan tashqari murakkab bo'lmasligi, bosqichma-bosqichlik tamoyiliga asoslanishi, bolaga "bajarolmayman" degan qo'rquvni bermasligi, shaxsiy qiziqishiga moslashtirilishi zarur.

2. Bilish jarayonlarining fiziologik xususiyatlari

Gospital sharoitida dori vositalari ta'siri sabab diqqatning jamlanishi pasayadi, qisqa muddatli xotira zo'riqadi, tez charchash holati kuzatiladi.

Bu holat o'qituvchini darsni 20–25 daqiqalik bloklar tarzida tashkil etishga majbur qiladi.

3. Emotsional faktorlar

Matematikada stressning ko'p bo'lishi fan o'zlashtirilishiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun: dars ijobiy ohangda o'tilishi, doimiy rag'batlantirish bo'lishi, har bir kichik yutuq qadrlanishi, bolaga sen uddalaysan, sen bilasan degan qo'llab-quvvatlash zarur, ularning barchasi psixologik talab hisoblanadi.

Uzoq muddat davolanayotgan bolalarda matematik ta'limining ilmiy-metodik asoslari

1. Didaktik moslashtirish

Matematika mazmuni quyidagilar asosida moslashtiriladi:

mavzularning soddalashtirilgan talqini, real hayotiy misollar asosida tushuntirish, qo'shimcha vizual modellardan foydalanish, kam yoziladigan, ko'proq og'zaki bajariladigan mashqlar.

Masalan hayotiy, qiziqarli ham mantiqiy masalalar yordamida darsga qiziqtiriladi va mavzuga moslashtiriladi.

2. Ko'rgazmali ta'lim prinsipi. Abstrakt tushunchalarni soddalashtirish uchun quyidagilar qo'llaniladi:

rangli kartalar, diagrammalar, virtual grafiklar, Lego-modellar, 3D geometriya animatsiyalari.

Ko'rgazmali vositalar o'quv materialining miyada ancha bardoshli saqlanishiga sabab bo'ladi.

3. Individual ta'lim trayektoriyasi. Har bir o'quvchining shaxsiy rejasi tuziladi, ya'ni bolaning holatiga qarab mavzuni muarkkab yoki soddaligi aniqlanadi.


O'quvchi uchun kuchli bo'lgan mavzular aniqlanadi, qiyinchilik tug'diradigan mavzular soddalashtiriladi, o'qitish tezligi o'quvchi sog'lig'iga moslanadi, nazorat ishlari kichik bloklarga bo'linadi, shunda o'quvchi o'ziga ishonch hosil qiladi.

Gospital ta'limda matematika faniga qiziqishni oshirish metodlari

Tadqiqotlar o‘yin texnologiyalari motivatsiyani 30–40% ga oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar. Gospitalda raqamli vositalar eng samarali yondashuv hisoblanadi, Chunki ular e‘tiborning tarqoq bo‘lishini kamaytiradi, mavzuni ko‘rgazmali qiladi, o‘quv faoliyatini mustaqil bajarish imkonini beradi.

Asosiy platformalar:

GeoGebra — algebra va geometriya animatsiyalari,



Matific — interaktiv matematik o‘yinlar,



Desmos — grafiklarni tahlil qilish,

Khan Academy — individual tempda o‘qitish,

Photomath — misollarni bosqichma-bosqich tahlil qilish.



Real hayotga bog‘langan holda o‘qitish, gospital sharoitida o‘quvchilar uchun matematikaning hayotiy ahamiyatini ko‘rsatishda juda muhim.

Quyidagilar samarali bo'ladi:

Dorilar dozasini nisbatlarda hisoblash, yurak urishi grafigini tahlil qilish, palata haroratini har kuni o'lchab jadval tuzish, vaqti-vaqti bilan shifoxona jarayonlaridan misollar keltirish.

Amaliy tadqiqotlar tahlili. Turli ilmiy tadqiqotlar gospital ta'limida matematika o'qitish bo'yicha quyidagi natijalarni ko'rsatadi:

Gamifikatsiya (Gamifikatsiya-bolalarni fanga qiziqtirish, faollashtirish va rag'batlantirish, oddiy qilib aytganda zerikarli yoki odatiy jarayonni o'yin kabi qiziqarli qilish) qo'llangan sinflarda matematika fanini o'zlashtirish 25–35% oshgan. Raqamli texnologiyalar qo'llanilganda matematika topshiriqlarini bajarish sifati 2 baravar oshgan. Emotsional qo'llab-quvvatlangan guruhlarda fan motivatsiyasi 40% ga ko'tarilgan. Kreativ metodlar fazoviy tasavvurni 50% yaxshilagan. Bu natijalar gospital matematik ta'limi alohida metodlarni talab qilishini tasdiqlaydi.

Matematika faniga qiziqishni oshirish uchun qo'shimcha yo'nalishlar

1. STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Math)

Matematika boshqa fanlar bilan bog'langanda yanada qiziqarli bo'ladi. Masalan: Geometriyani san'at (art) bilan bog'lab mandalalar chizish, algebra va fizika integratsiyasi, muhandislik kichik loyihalarini bajarish, robototexnika bilan birlashtirish: Matematikaning hayotiy va ijodiy tomoni ko'rinadi.

O'quvchilar matematik masalani tayyor ko'rinishda emas, balki: o'zlari kashf qiladi, izohlaydi, tahlil qiladi, xulosaga keladi. Misol: "Nega uchburchakning ichki burchaklari 180° bo'ladi?" savolini o'quvchilar bilan izlanish orqali topish: O'quvchi matematikani "tayyor bilim" emas, "kashfiyot" sifatida qabul qiladi. Har bir o'quvchining qobiliyati turlicha: Kuchli o'quvchilar uchun murakkab masalalar, qiyinchilik ko'rayotganlar uchun soddalashtirilgan variantlar, turli darajadagi topshiriqlar. Har bir o'quvchi o'z tempida rivojlanadi va bu qiziqishni oshiradi. Matematik hikoyalar va kontekstli topshiriqlar, matematik tushunchalardan iborat qiziqarli hikoyalar: Masalalar matnini kichik sarguzasht shaklida berish, masalalarda qahramonlar bo'lishi, o'quvchining o'z hayoti bilan bog'liq kontekstlar.

Masalan matematik hiylalar yoki o'quvchi ishtirokida o'quvchining yoshini topish uchun matematik so'rovlar asosida bolaning yoshini topish, bolada matematika faniga o'zgacha qiziqish paydo bo'ladi,

Matematika "quruq sonlar" emas, mazmunli jarayon sifatida qabul qilinadi. Oila bilan hamkorlikda "Uyda matematika" loyihalari, matematikani uy sharoitida ham davom ettirish misol uchun uy jihozlarini o'lchash, oilaviy xarajatlar byudjetini hisoblash, uy haroratini grafik qilish ham matematika kundalik hayotning ajralmas qismi sifatida ko'riladi.

Xulosa

Gospital ta'lim sharoitida matematika faniga qiziqishini shakllantirish ko'p qirrali, ilmiy asoslangan va pedagogik mahorat talab qiluvchi jarayondir. Individual yondashuv, raqamli texnologiyalar, real hayotiy misollar, emotsional qo'llab-quvvatlash va kreativ metodikalar matematik ta'limning samaradorligini keskin oshiradi. Shuningdek, gospital ta'limdagi matematika o'qituvchisi

o'quvchining ruhiy holatini hisobga olishi, darslarni qisqa lekin mazmunli tashkil qilishi, real hayotiy vaziyatlardan foydalanishi, ijobiy muhit yaratishi, o'yin va kreativ metodlardan keng foydalanishi shart. Pedagogik va psixologik yondashuvlar uyg'unlashtirilgan taqdirda, gospital ta'lim nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining ruhiy holatini mustahkamlaydigan, uning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradigan samarali tizimga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gospital ta'limda matematika ta'limining amaldagi holati va mavjud muammolar - Yusupjanova Sh.M 2022 y
2. Jumayev M.E. va b. Boshlang'ich sinflarda matematika ' oqitish metodikasi. Toshkent., «Fan va texnologiya». 2005.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalar gematologiyasi, onkologiyasiva klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgachata'limvatarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"2022-yil 5- maydagi 234-son qarori.
4. Omonov B. "Qiziqarli matematika" Toshkent "O'qituvchi", 1994 yil